
RUS VA XORIJIY TILLAR FAN OYLIKI MUNOSABATI BILAN SEMINAR O'TKAZILDI

Xalq ta'limi vazirligining 183-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida "Noyabr xorijiy va rus tili fani oyligi" doirasida Toshloq tumanidagi 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida "Oltin kuz" mavzusida viloyat seminari bo'lib o'tdi. Unda Oltiariq, Quva, Qo'shtepa tumanlari hamda Farg'ona, Marg'ilon, Quvasoy shaharlari metodist va fan o'qituvchilari ishtirok etdilar. Seminar doirasida Z.Qodirovaning 1-sinfidagi harfi, O.Madumarovanning 7-sinfidagi "Bizning sayyora", M.Alkasimovalarning 4- sinflardagi ochiq darslari metodistlar va fan o'qituvchilari tomonidan kuzatildi. Shuningdek, rus tili fanini o'quvchilarga interfaol usulda o'rgatish, darslarda texnik vositalardan samarali foydalanish kabi masalalar yuzasidan fikrlar almashildi. Yakunda O.Madumarovanning "Darslarda o'quvchilarga motivasiya berish" nomli metodik qo'llanmasi viloyat miqiyosida ommalashtirishga tavsiya etildi.

2022-11-16 15:49:41